

8-dars. Predmetlar guruhlarini taqqoslash

Tayanch soʻzlar:


qancha boʻlsa, shuncha
koʻp
kam



Qanday doirachalar
koʻp?



1. Madina doʻstlariga olma tarqatmoqchi. Uning nechta olmasi bor? Madinaning olmalari doʻstlariga yetadimi? Unga yana nechta olma kerak boʻladi? Shuncha olma rasmini chizing.



2. Uchburchak va kvadratlardan rasmdagi kabi uychalar yigʻing. Nimalar koʻproq: uchburchaklarmi yoki kvadratlarmi?



qancha boʻlsa, shuncha



koʻp



kam




3. Berilgan vazifa boʻyicha shakllar chizing:

a) ● lar □ lardan koʻp;



b) ☀ lar ☆ lardan kam.



8-dars. Predmetlar guruhlarini taqqoslash



4. Sharlar qaysi tomonda ko'proq: chapdami yoki o'ngdami?
Kimlar kamroq: qizlarmi yoki o'g'il bolalarmi?
Agar bolalarning har biri binoning bittadan derazasidan qarasa, bino derazalari bolalarga yetadimi?
Agar har bir qizcha 3 tadan moychechak olsa, moychechaklar qizchalarga yetadimi?



5. Rasmlarga qarang. Farqlarni topib, ularni aylanaga oling.



6. Berilgan shartlar bo'yicha kataklarga olmalar rasmini chizing:



likopchada
qancha olma
bo'lsa, shuncha;

--	--	--	--	--	--

3 tadan ko'p,
biroq likopchadagi
olmalardan kam.

--	--	--	--	--	--

9-dars. O'yin-dars

